

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD 03/30.12.2019 Psi.72.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

QULIYEV YORQIN KARIMOVICH

**TALABALARDA KORRUPTION HOLATLARGA QARSHI XULQ-
ATVORNI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK
XUSUSIYATLARI**

19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya

PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Buxoro – 2024

**Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
психологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on the
Psychological Sciences**

Quliyev Yorqin Karimovich

Talabalarda korrupsion holatlarga qarshi xulq-atvorni shakllantirishning ijtimoiy-
psixologik xususiyatlari..... 5

Кулиев Ёркин Каримович

Социально-психологические особенности формирования у студентов
антикоррупционного поведения 25

Quliyev Yorqin Karimovich

Social and psychological features of anti-corruption behavior formation among
students 49

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works 53

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD 03/30.12.2019 Psi.72.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

QULIYEV YORQIN KARIMOVICH

**TALABALARDA KORRUPSION HOLATLARGA QARSHI XULQ-
ATVORNI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK
XUSUSIYATLARI**

19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/P435 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.buxdu.uz) hamda «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Nazarov Akmal Mardonovich
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Abdullayeva Dilbar Ubaydullyevna
psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Ismatova Dilafruz Tuymuratovna
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

Samarqand davlat universiteti


Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi PhD03/30.12.2019Psi.72.06. raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «29» mart soat 16⁰⁹ dagi majlisida bo'lib o'tadi (manzil: 200118, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy. (Tel.:+99865221-29-14; faks: +998365 221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (Alis95 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. (Tel.: +998365221-25-87).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «16» mart kuni tarqatildi.

(2024-yil «16» mart dagi 17 - raqamli reyestr bayonnomasi.)


A.M. Jabborov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi
o'rinbosari, psixologiya fanlari doktori,
professor


Sh.Sh. Rustomov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi,
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD)


A.A. Xuseynova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi, falsafa fanlari doktori,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini ta'minlash shaxslarda korrupsion holatlarga qarshi xulq-atvorni shakllantirish, fuqarolik jamiyati institutlarining rolini oshirish bo'yicha ishlar olib borilmoqda. Xususan, «Transparency International» xalqaro tashkilotining Korrupsiyani idrok etish indeksiga (CPI) ko'ra, korrupsiya darajasi butun dunyo bo'ylab turg'unligicha qolayotganligi bois BMTning «Ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni hal qilish va milliy, xalqaro miqyosda qonun ustuvorligini targ'ib qilish maqsadida, jinoyatchilikning oldini olish va jinoiy odil sudlov masalalarini BMTning kun tartibiga kiritish to'g'risida»gi Doha deklaratsiyasida «favqulodda vaziyatlar, inqirozni boshqarish, ulardan keyin tiklanish bosqichida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash»¹ borasidagi chora tadbirlarni kuchaytirishga alohida e'tibor berilmoqda. Bu borada korrupsion holatlarga undovchi ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlash, antikorrupsion xulqning individual-tipologik mexanizmlarini shakllantirish yuzasidan ta'sirchan usullarni o'zida mujassamlashtirgan psixokorreksion dasturlarni amaliyotda qo'llash dolzarb muammolardan bo'lib qolmoqda.

Jahonda korrupsiyaga qarshi kurashish maqsadida, mehnat jamoalari, ta'lim muassasalarida korrupsion holatlarni oldini olish va sog'lom muhitni yaratish, shaxslararo munosabatlarni barqarorlashtirish, antikorrupsion xulqni shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar, ijtimoiylashuv jarayonlari, individual tipologik xususiyatlari, oilaning korrupsion xulqni oldini olishdagi ahamiyati, shaxs ehtiyojlari, yo'nalganligi, motivasion sohasini tadqiq etish bo'yicha ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, dunyoda korrupsiyaga qarshi kurashishning turli usul va vositalaridan foydalangan holda, bu jarayonlarda ta'lim muassasalari, davlat va nodavlat tashkilotlar rolini kuchaytirish, sohada tashkiliy-huquqiy masalalarni hal etish, talabalarda «antikorrupsion immunitet»ni shakllantirish, xulq-atvoriga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarini aniqlash, hissiy irodaviy sifatlar, refleksiv xususiyatlarining shakllanganlik darajasiga bog'liqligiga doir ilmiy tadqiqotlar olib borish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda o'zbek mentalitetiga xos bo'lmagan etnopsixologik xususiyatlar poraxo'rlik va tamagirlik illatlarga qarshi kurashish, jamiyatda korrupsion holatlarni oldini olishning zarur huquqiy-me'yoriy asoslari yaratilmoqda. «Korrupsiyaga moyil soha va tarmoqlarni aniqlash, korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish tizimining samaradorligini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan muhosasiz munosabatni shakllantirish»² ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bu borada korrupsiyaga qarshi kurashish va ularga barham berishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish, soha mutaxassisleri faoliyatini tubdan takomillashtirish, bu illatga barham berish yo'llarini izlab topish, shaxsda antikorrupsion xulqning refleksiv komponentlarini shakllantirish, korrupsiyaga moyillikni bartaraf etish uchun shaxs motivasion sohasiga korreksion ta'sir etish, shaxsdagi korrupsion holatlarga moyillikni axloqiy sifatlarni shakllantirish orqali

¹ https://www.unodc.org/documents/treaties/UNCAC/COSP/session9/CAC-COSP-2021-17/V2200116_R.pdf

² <https://lex.uz/docs/-5841063>

oldindan bartaraf etish bo'yicha ta'sirchan amaliy choralarni ishlab chiqishga qaratilgan yangicha nazariy yechimlarni topish masalasi dolzarb ahamiyatga ega ekanligi kuzatilmoqda.

2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida», 2020 yil 6 noyabrdagi PF-6108-son «O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2019-yil 27-maydagi PF-5729-son «O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2020-yil 29-iyundagi PF-6013-son «O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» Farmonlari, 2020-yil 29-iyundagi PQ-4761-son «O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi qarori hamda faoliyatga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan keng ko'lamli strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovasion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Talabalarda korrupsion holatlarga qarshi xulq-atvorni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlariga doir ilmiy tadqiqotlar Sh.R.Baratov, B.Bekmuradov, A.M.Jabborov, X.X.Jabborov, B.I.Ismailov, Sh.R.Kabilov, O.E.Hayitov, V.M.Karimova, Z.T.Nishanova, A.X.Saidov, M.Y.Muxammadiyeva, O.T.Xusanov, E.G'.G'oziyev, G'.B.Shoumarov, O.R.Shamiyev, M.Quronov va boshqa olimlar tomonidan olib borilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan Ye.V.Kolenko, G.R.Malikova, T.M.Rezer, I.A.Imanov, F.N.Bagautdinova, N.V.Kulik, S.N.Alekseev, O.N.Korshunova, N.V.Laskina, A.S.Semenov, Y.G.Knyazeva, O.S.Kapinus, D.M.Plugar va boshqa olimlar tomonidan korrupsion xulq-atvor, korrupsiyaga qarshi kurashish usullari va xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy-psixologik omillar tadqiq etilgan.

Xorij olimlaridan H.K.Anheier, I.Amundsen, R.Boesche, Brunetti, O.Dard, R.Dandurand, R.Grote, J.Kocka, R.T.Kroeze, F.Monier, J.E.Engels, M.Fleurbaey, M.Edwards, S.Rose-Ackerman, R.D.Putnam, J.Habermas, S.Huntington, K.Shvab, M.Weber, A.Weder va boshqalar tomonidan shaxsning individual xususiyatlari va xulq-atvoriga ta'sir qiluvchi omillar bo'yicha ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq PZ-202005236-raqamli «Oila psixologiyasi fanidan multimedia mahsulotini yaratish» (2021 y.) nomli innovatsion loyihalar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi talabalarda korrupsion holatlarga qarshi xulq-atvorni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

talabalarda korrupsion holatlarga qarshi xulq-atvorni shakllantirishda ustuvor hisoblangan ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlash;

talabalardagi hissiy-irodaviy sifatlarning darajasi va antikorrupsion xulq shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy-psixologik xususiyatlarni asoslash;

talabalarda antikorrupsion xulqni shakllantirishda bevosita shaxsning motivatsion sohasiga ta'sir etuvchi jihatlarni tahlil qilish;

talabalarda antikorrupsion xulqni shakllantirishda uchun refleksiv xususiyatlarning o'ziga xos jihatlarni tahlil qilish asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida talabalarda korrupsion holatlarga qarshi xulq-atvorni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rganish jarayoni belgilanib, tadqiqotga Buxoro davlat universitetining 310 nafar, Qarshi davlat universitetining 160 nafar, Navoiy davlat pedagogika institutining 140 nafar talabari, jami 610 nafar talabalar respondentlar sifatida jalb etilgan.

Tadqiqotning predmetini talabalarda korrupsion holatlarga qarshi xulq-atvorni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida suhbat, kuzatuv, anketa, kontent-tahlil usuli, shuningdek, A.V.Karpovning «Shaxsdagi refleksiya darajalarini o'rganish» metodikasi, V.M.Chumakovning «Shaxs irodaviy sifatlarini o'rganish», V.I.Morosanovanning «Xulq-atvorni o'z o'zini boshqarish uslubi» M.Kubishkinaning «MAS» metodikasi, «Talabalarda korrupsiya to'g'risidagi tasavvurlarni o'rganish» ijtimoiy-psixologik so'rovnomasi hamda matematik-statistik metodlaridan (foizli tahlil, faktorli tahlil, Styudentning t-mezoni, K.Pirsonning r-korrelyatsiya koeffitsientini hisoblash) foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

talabalarda korrupsion holatlarga qarshi xulq-atvorni shakllantirishda axloqning kognitiv, motivatsion, emotsional komponentlarini retrospektiv, real va prospektiv faoliyatni tahlil qilish jihatlari bilan autent namoyon bo'lishi muhimligi tufayli refleksiv xususiyatlarni rivojlanganlik darajasi ustuvor ahamiyatga ega ekanligi dalillangan;

talabalardagi irodaviy sifatlarini rivojlanganlik darajasini antikorrupsion xulqni shakllanishiga ta'siri natijasida «mas'uliyatlilik», «tashabbuskorlik», «mustaqillik», «matonatlilik», «qat'iyatlilik», «maqsadga intiluvchanlik» jihatlarni faoliyatga munosabatda gender differentsiatsiyalanishi tufayli o'z xulq-atvorini boshqarish komponentlari ijtimoiy-psixologik xususiyat ekanligi asoslangan;

talabalarda antikorrupsion xulqni shakllantirishda shaxslararo munosabatlardagi ijtimoiy nufuzga, raqobatga, maqsadga erishishga intilishning gender xususiyatlarga bog'liq ravishda konstruktiv raqobatga tayyorlikka o'zaro integrativ rivojlantirish muhimligi tufayli shaxs motivatsion sohasiga korreksion-adaptiv ta'sir etish muhimligi dalillangan;

talabalarda antikorrupsion xulqni shakllantirishda faoliyatdagi perspektiv o'z-

o'zini tahlil qilishning rejalashtirish, modellashtirish, mustaqillik, o'zini nazorat qilish sifatlariga bog'liq ravishda ustuvor namoyon bo'lishi muhimligi tufayli xulq-atvorda o'zini-o'zi boshqarish va refleksiv xususiyatlarni o'zaro integrativ rivojlanishini ta'minlash muhimligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

korrupsiyaga qarshi kurashishda korrupsion holatlarga qarshi xulq-atvorni shakllantirishga doir tushunchalar ilmiy jihatdan izohlangan va ilmiy-nazariy tavsiflangan;

talabalarda antikorrupsion xulqni rivojlantirishning refleksiv xususiyatlarga bog'liqlik jihatlarini kompleks tadqiq etishning psixodiagnostik imkoniyati yaratilgan;

talabalarda antikorrupsion xulq-atvor motivlarini shakllantirish bo'yicha ijtimoiy-psixologik modeli yaratilgan va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi ilmiy jihatdan asoslangan, ijtimoiy psixologiya yo'nalishida amaliyotchi mutaxassislar tomonidan keng qo'llanuvchi metodik vositalar, matematik statistikaning turli darajadagi (birlamchi va yuqori darajalardagi) metodlari kompleks qo'llanilganligi; respondentlar tanlanma to'plamining hajmi psixologik tadqiqotlarda tavsiya etilgan talablar asosida ishlab chiqilganligi; ilmiy-nazariy tahlili, empirik natijalar sharhini ishonchli darajada asoslanganligi; asosiy ma'lumotlar keng ilmiy jamoatchilik o'rtasida muhokama qilinganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati bevosita uning yangiligi va tadqiqot metodlarining ishonchligidan kelib chiqishi, shuningdek, empirik tadqiqot dasturini ishlab chiqish usullari, mazmuni, statistik tahlili, o'ziga xos metodologik yondashuvlarning tadqiqotimizda kompleks ravishda qo'llanishi, oliy ta'lim tizimida tahsil olayotgan talabalarni korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatiga jalb etishning ijtimoiy-psixologik asoslarini takomillashtirish, talabalarining korrupsion holatlarga moyillik darajalarini o'rganishi hamda «Boshqaruv psixologiyasi», «Psixologik xizmat», «Umumiy psixologiya», «Umumiy psixodiagnostika», «Ijtimoiy psixologiya» kabi fanlarni ilmiy ma'lumotlar bilan to'ldirishi bilan tasniflanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tadqiqotdagi nazariy umumlashgan va empirik tahlillardan talabalar shaxslararo munosabatlarni adekvat idrok qilish ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan o'quv mashg'ulotlarini tashkillashtirish, uslubiy jihatdan foydalanish, antikorrupsion xulq motivlari bo'yicha tadqiqot natijalarini amaliyotga qo'llanilishi talabalarining o'quv faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Talabalarda korrupsion holatlarga qarshi xulq-atvorni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari yuzasidan o'tkazilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

talabalarda korrupsion holatlarga qarshi xulq-atvorni shakllantirishda axloqning kognitiv, motivatsion, emotsional komponentlarini retrospektiv, real va prospektiv faoliyatni tahlil qilish jihatlarini bilan autent namoyon bo'lishi muhimligi tufayli refleksiv xususiyatlarni rivojlanganlik darajasi ustuvor ahamiyatga ega ekanligi dalillanganligiga oid ma'lumotlar Toshkent davlat pedagogika universiteti

huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiiy markazining 2023-yil 26-oktyabrdagi PM-86-son buyrug'i bilan «Ijtimoiy psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiiy markazining 2023-yil 1-noyabrdagi PM-86a-son ma'lumotnomasi). Natijada talabalarda antikorrupsion xulq motivlari bilan refleksiv xususiyatlarga o'zaro bog'liq ekanligi aniqlangan;

talabalardagi irodaviy sifatlarini rivojlanganlik darajasini antikorrupsion xulqni shakllanishiga ta'siri natijasida mas'uliyatlilik, tashabbuskorlik, mustaqillik, matonatilik, qat'iyatlilik, maqsadga intiluvchanlik jihatlarini faoliyatga munosabatda gender differentsiatsiyalanishi tufayli o'z xulq-atvorini boshqarish komponentlari ijtimoiy-psixologik xususiyat ekanligi asoslanganligiga oid ma'lumotlar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiiy markazining 2023-yil 26-oktyabrdagi PM-86-son buyrug'i bilan «Ijtimoiy psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiiy markazining 2023-yil 1-noyabrdagi PM-86a-son ma'lumotnomasi). Natijada talabalarda antikorrupsion xulq motivlarini rivojlantirishda irodaviy sifatning differensial namoyon bo'lishi xususiyatlari tadqiq etish imkoniyati yaratilgan;

talabalarda antikorrupsion xulqni shakllantirishda shaxslararo munosabatlardagi ijtimoiy nufuzga, raqobatga, maqsadga erishishga intilishning gender xususiyatlarga bog'liq ravishda konstruktiv raqobatga tayyorlikka o'zaro integrativ rivojlantirish muhimligi tufayli shaxs motivatsion sohasiga korreksion-adaptiv ta'sir etish muhimligi dalillanganligiga oid takliflar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiiy markazining 2023-yil 26-oktyabrdagi PM-86-son buyrug'i bilan «Ijtimoiy psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiiy markazining 2023-yil 1-noyabrdagi PM-86 a-son ma'lumotnomasi). Natijada talabalarda shaxs motivatsion sohasiga korreksion-adaptiv ta'sirlarni oshirishga erishilgan;

talabalarda antikorrupsion xulqni shakllantirishda faoliyatdagi perspektiv o'z-o'zini tahlil qilishning rejalashtirish, modellashtirish, mustaqillik, o'zini nazorat qilish sifatlariga bog'liq ravishda usutvor namoyo bo'lishi muhimligi tufayli xulq-atvorda o'zini-o'zi boshqarish va refleksiv xususiyatlarni o'zaro integrativ rivojlanishini ta'minlash muhimligi isbotlanganligiga oid takliflar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiiy markazining 2023-yil 26-oktyabrdagi PM-86-son buyrug'i bilan «Ijtimoiy psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiiy markazining 2023-yil 1-noyabrdagi PM-86a-son ma'lumotnomasi). Natijada talabalarda antikorrupsion xulq-atvorni shakllantirishning psixokorreksion amaliy-uslubiy ta'minotni shakllantirish usuli ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokama etilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha 11 ta ilmiy ish, jumladan, Oliy attestatsiya komissiyasi doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etgan ilmiy nashrlarda 5 ta ilmiy maqola, shundan 2 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, umumiy xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 125 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprobatsiyasi va e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Korrupsiya va korrupsiyaviy xulq-atvor muammolarini o'rganishning metodologik asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida talabalarda antikorrupsion xulq-atvorni shakllantirishning nazariy asoslari, korrupsion holatlarning kelib chiqish tarixi, korrupsiyaviy xulq-atvor muammosi o'rganishning psixologik yondashuvlari, korrupsion munosabat turlari, talabalarda korrupsiyaga qarshi xulq-atvorni shakllantirishda daxldorlik fazilatining ahamiyati to'g'risidagi tahlillar amalga oshirilgan.


Shaxs xulq-atvoridagi o'zgarishlarni, turli omillarning ta'sirini tadqiq etgan o'zbek olimlaridan F.A.Akramova, E.G.G'oziyev, M.G.Davletshin, G'.B.Shoumarov, Sh.R.Baratov, V.M.Karimova, Z.T.Nishanova, N.A.Sog'inov, B.R.Qodirov, O.E.Hayitov va boshqalar tomonidan o'rganilgan. Umuman olganda, talabalarda antikorrupsion xulq-atvorni shakllantirish bo'yicha bugungi kunga qadar mukammal tarzda ishlab chiqilgan va tan olingan yagona ilmiy yo'nalish yoki konsepsiya qabul qilinmagan bo'lsa-da, ilg'or G'arb olimlari hamda o'zbekistonlik psixologlar tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlar mavjudki, ular qaysidir jihati bilan antikorrupsion xulq-atvor mohiyati, ahamiyati, ta'sirini ilmiy-amaliy jihatdan tadqiq etish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

MDH olimlaridan L.I.Sokolova, Y.S.Mishenko, S.V.Ponomarev, A.T.Kamzanova, Y.Koloskova, Z.A.Semenova, T.P.Nesterova, R.A.Doljenko, T.Karapetyan, S.Maddi, D.A.Leontev, T.Y.Bazarov, B.L.Eremin, O.B.Antonov, N.I.Shatalova, G.Latfullin, O.Gromova, S.Ogursov, A.N.Suxov, A.A.Derkach va boshqalarning izlanishlarida korrupsion holatlarni keltirib chiqaruvchi omillar bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan.

Xorij olimlari tomonidan korrupsion holatlar va antikorrupsion xulq-atvorni shakllantirish bo'yicha salmoqli izlanishlar olib borilgan. Jumladan, T.Gobs, J.Lokk, Ch. Monteske, M.Veber, X.Xekxauzen, P.Salodey, G.Eberleyn, D.Nevv, L.D.Gissen, U.V.Kala, V.V.Rudik va boshqalar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda korrupsion harakatlarning asoslari o'rganilgan. Lekin aynan talabalarda antikorrupsion xulq-atvorni shakllantirish bo'yicha ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar deyarli olib borilmagan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi «**Talabalarda korrupsiyaga qarshi xulq-atvorni shakllantirishning empirik usullari**» deb nomlangan bo'lib, talabalarni korrupsiyaga undovchi ichki va tashqi motivatsiyalar, xulq-atvorning korrupsiyaga

moyillik darajasining tarkibiy qismlari, komponentlari, tadqiqotda qo'llanilgan metodikalarning uslubiy tamoyillari, tanlangan obyektlarning psixologik tavsifi, tadqiqot uchun ishlab chiqilgan ijtimoiy-psixologik so'rovnoma va uning natijalari to'g'risida ma'lumotlar bayoni keltirilgan.



1-rasm. Korrupsiyaga qarshi ta'sir o'tkazish tarkibining tuzilishi.

Taniqli olim V.Kiselyovning talabalarining korrupsiyaga qarshi xatti-harakatlari, xulq-atvor xususiyatlari bo'yicha olib borgan tadqiqotlarida kognitiv komponent bilan qiymat komponenti birlashtirilgan, jumladan korrupsiya to'g'risida bilim, ko'nikmalar, korrupsiya turlari, korrupsiyani aniqlash qobiliyati mavjud emas, balki, ijtimoiy me'yor va huquqiy ong asoslarini bilish kerakligi tushuntirilgan. Antikorrupsiyaning kognitiv komponentini tadqiq etishga doir izlanishlar olib borilgan.

Tadqiqotimiz davomida talabalarda korrupsiyaga qarshi xulq-atvorni shakllantirishga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlashga qaratilgan metodlarni tadqiqot maqsadidan kelib chiqib yosh va jins kesimida tahlil qilishga ham urinib ko'rdik.

1-jadval.

Talabalarda refleksiya darajalari namoyon bo'lishining umumiy ko'rsatkichlari

Talabalarda refleksiya darajalari	Respondentlar soni n=610	%
Yuqori	149	24,5
o'rta	240	39,3
quyi	221	36,2

Refleksiya shaxsning o'zini o'zi anglashi bo'lib, o'zining yaxlit "Men" obrazi, ichki dunyosining tuzilishi va hayot mazmunini aniqlashga qaratilgan

subyektning o'zini o'zi bilish jarayoni hisoblanadi. Refleksiya metakognitiv jarayon sifatida shaxs tafakkurining tamoyili bo'lib, o'z imkoniyatlarini tushunishi, anglashi, mazmuni, metodi, ma'lumotlarni tanqidiy tahlil qilishdan iborat. Boshqacha qilib aytganda, o'z tafakkurini rivojlantirish to'g'risida o'ylash qobiliyati hisoblanadi. Olingan ma'lumotlar tahliliga nazar tashlaydigan bo'lsak (1-jadval), umumiy hisobda barcha respondentlardan olingan eng yuqori natija bu refleksiyaning o'rta darajasi bo'lib, talabalarning 240 (39,3 %) nafari ushbu darajaga mansubligi aniqlandi. Eng quyi ko'rsatkich esa 221 (36,2 %) nafarni tashkil etdi. Natijalardan ko'rinib turibdiki, talabalardagi refleksiya darajalari korreksiyalash ishlarini olib borish ehtiyoji mavjud.

2-jadval.

Talabalarda refleksiya darajalari namoyon bo'lishining gender-qiyosiy ko'rsatkichlari

№	Refleksiya darajalari	Yigitlar n=320	foizi	Qizlar n=290	foizi
1.	Faoliyatning retrospektiv refleksiyasi	78	24,4	128	44,3
2.	Ayni vaqtdagi faoliyat refleksiyasi	108	33,7	49	16,8
3.	Kelajakdagi faoliyat refleksiyasi	134	41,9	113	38,9
	Jami:	320	100	290	100

Endi, bevosita refleksiya darajalarining gender tafovutlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bunda 3 ta refleksiya darajalaridan yigitlarda «retrospektiv refleksiya» 24,4 foizni, «ayni vaqtdagi faoliyat refleksiyasi» 33,7 foizni, «kelajakdagi faoliyat refleksiyasi» esa 41,9 foizni tashkil etdi (2-jadval). Ushbu metodika natijalari qizlarda quyidagicha namoyon etildi. Bunda, «ayni vaqtdagi faoliyat refleksiyasi» 16,8 foiz, «faoliyatning retrospektiv refleksiyasi» 44,3 foiz «kelajakdagi faoliyat refleksiyasi» 38,9 foizga mansub ekanligi aniqlandi.

Ushbu tahlillar shuni angalatadiki, yigitlarda refleksiyaning eng yuqori ko'rsatkichi 41,9 % ni («kelajakdagi faoliyat refleksiyasi»), eng past ko'rsatkich esa 24,4 % («faoliyatning retrospektiv refleksiyasi») ko'rsatgan bo'lsa, qizlarda esa eng yuqori ko'rsatkich 44,3 % («faoliyatning retrospektiv refleksiyasi»), eng past ko'rsatkich 16,8 % ni («ayni vaqtdagi faoliyat refleksiyasi») namoyon etdi. Bu shundan dalolat beradiki, yigitlarda qizlarga nisbatan kelgusi faoliyatni, xulq-atvorni tahlil qilish, rejalashtirish, faoliyat natijalari gipoteza qilish va boshqa shunga o'xshash xususiyatlar ustunlik qilar ekan. Qizlarda esa yigitlarga nisbatan o'tmishda sodir bo'lgan hodisalarni tahlil qilish, bo'lib o'tgan voqealar tafsiloti, o'tmishda qilingan xatolar va shunga o'xshash xususiyatlar dominant ekanligi aniqlandi. Demak qizlarda yigitlarga nisbatan korupsion harakatlarni bajarishga moyillik ustunlik qilar ekan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, talabalarda antikorrupsion xulq-atvorni shakllantirishda asosiy mexanizmi uning aks ettirish qobiliyati bo'lishi mumkin. Buning amaliy natijasi refleksivlikning turli shakllarini rivojlantirish natijasida

talabalarda korrupsiyaga qarshi immunitetni shakllantirish imkoniyati paydo bo'ladi. Shunday qilib, talabalarda korrupsiyaga qarshi xulq-atvorni shakllanishida refleksiya asosiy mexanizm ekanligi aniqlandi. Buning amaliy natijasi o'laroq talabalarning insonning korrupsiyaga qarshi xulq-atvorini shakllantirishda uning refleksivligini faollashtirish katta imkoniyatlarni yuzaga kelishiga sabab dalillanirildi.

Keyingi tadqiqot metodimiz V.M.Chumakov tomonidan taklif qilingan «Shaxs irodaviy sifatlarini o'rganish metodikasi» sanaladi. Mazkur metodika shaxsdagi «mas'uliyatlilik», «jur'atlilik», «mustaqillik», «tashabbuskorlik», «qat'iyatlilik», «e'tiborlilik», «g'ayratlilik», «maqsadga intiluvchanlik», «matonatlilik» kabi irodaviy sifatning shakllanganlik darajasini aniqlashga qaratilgan. Ushbu metodikani qo'llashimizdan maqsad talabalarning o'zini o'zi nazorat qilishida irodaviy sifatning o'zaro aloqadorligini aniqlashdan iboratdir. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad – talabalarda irodaviy sifatlar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni va talabalarda antikorrupsion holatlar bilan bog'liqligini aniqlashdan iborat.

3-jadval.

**Shaxs irodaviy sifatlarini o'rganish metodikasi
bo'yicha olingan dastlabki umumiy ma'lumotlar (n=610)**

№	Omillar	Yigitlar N=320		Qizlar N=290	
		M	S	M	S
1.	Ma'suliyatlilik	15,2	1,5	14,1	2,5
2.	Tashabbuskorlik	16,5	3,8	11,3	1,6
3.	Jur'atlilik	12,1	1,3	8,6	0,7
4.	Mustaqillik	15,4	2,6	12,3	2,2
5.	Matonatlilik	5,1	2,2	12,0	3,8
6.	Qat'iylik	5,6	3,1	7,9	1,5
7.	G'ayratlilik	11,5	1,4	10,1	0,7
8.	E'tiborlilik	12,1	2,7	14,4	1,2
9.	Maqsadga intiluvshanlik	6,5	2,6	9,3	1,3

Endi, talabalarda irodaviy sifatning namoyon bo'lishi bilan bog'liq ko'rsatkichlar bo'yicha aniqlangan gender farqlarning umumiy sharhiga to'xtalib o'tamiz (3-jadval). Yigitlarda irodaviy sifatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlar «tashabbuskorlik» 16,5, «mustaqillik» 15,4, «mas'uliyatlilik» 15,2 bo'lsa, quyi ko'rsatkichlar «maqsadga intiluvchanlik» 6,5, «qat'iylik» 5,6 «matonatlilik» esa 5,1ni tashkil etdi. Bu shuni anglatadiki, talabalarning o'z xulq-atvorini nazorat qilishda muhim xususiyatlardan hisoblangan «maqsadga intiluvchanlik», «qat'iylik», «matonatlilik» sifatleri nisbatan kam darajada shakllanganligini kuzatishimiz mumkin. Qolaversa, tashabbuskorlik, ijtimoiy dadillik, o'z fikrlarida mustaqillik, qarorlar qabul qilishdagi mas'uliyatlilikning ustunligi aniqlangan. Qizlarning ushbu metodika bo'yicha natijalariga nazar tashlaydigan bo'lsak, bunda eng yuqori ko'rsatkichlar «mas'uliyatlilik» 14,1, «e'tiborlilik» 14,4 va

«mustaqillik» 12,3 bo'lsa, quyi ko'rsatkich esa «maqsadga intiluvchanlik» 9,3, «jur'atilik» 8,6, «qat'iylik» 7,9 ko'rsatkichlar miqdorida namoyon etildi. Har ikki guruhda ham maqsadga intiluvchanlik xususiyatining past natija berishi sinaluvchilarimizning o'z hayot strategiyalarini to'liq anglab yetmaganligidan, o'z oldiga aniq maqsadlar belgilashdagi dadillikni yetishmasligidan dalolat beradi. Qolaversa, qizlarda ham mas'uliyatlikning ustunligi aksariyat holatlarda shaxsiy masalalarda, o'z manfaatlari uchungina mas'uliyatni o'z zimmlariga olishlarini anglatadi.

Tadqiqotimizning navbatdagi bosqichida V.I.Morosanovanning «Xulq-atvorni o'z o'zini boshqarish uslubi» so'rovnomasi qo'llanildi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad shundaki, talabalarning hayotida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan korrupsion holatlarda o'zini o'zi boshqarish holatlarini aniqlashdan iborat.

4-jadval.

Talabalarda xulq-atvorda o'zini o'zi boshqarish xususiyatlarining gender farqlar kesimida namoyon bo'lishi (Mann-Uitni U-mezoni bo'yicha taqqoslash natijalari) (n=610)

Omillar	Jins	Ranglar o'rtachasi	Ranglar yig'indisi	U (Mann-Uitni qiymati)	p (ishonch darajasi)
Rejalashtirish	Yigitlar	69,2	2084,5	1706,5**	,005
	Qizlar	105,1	19860,5		
Modellashtirish	Yigitlar	101,2	2894,0	1825,0**	,005
	Qizlar	86,9	19051,0		
Dasturlashtirish	Yigitlar	99,3	2681,0	2303,0	,592
	Qizlar	105,8	19264,0		
Natijalarni baholash	Yigitlar	92,8	2507,5	2129,5	,255
	Qizlar	106,8	19437,5		
Moslashuvchanlik	Yigitlar	88,2	2383,5	2005,5	,117
	Qizlar	107,4	19561,5		
Mustaqillik	Yigitlar	90,0	2432,5	2054,5	,164
	Qizlar	107,2	19512,5		
O'zini o'zi boshqarishning umumiy darajasi	Yigitlar	86,3	2254,0	1876,0*	,005
	Qizlar	105,7	19691,0		
O'zini o'zi boshqarish qobiliyati	Yigitlar	89,6	2421,5	2043,5	,158
	Qizlar	107,2	19523,5		

Yuqorida keltirilgan 4-jadvaldagi ko'rsatkichlarga ko'ra, xulq-atvorda «o'zini o'zi boshqarish qobiliyatlari» gender xususiyatlari kesimida o'rganilganda, talabalarda «rejalashtirish» komponenti bo'yicha ahamiyatli tafovutlar aniqlandi ($U=1706,5$; $p \leq 0,05$). Olingan empirik natijalardan ma'lum bo'ladiki, talabalarda faoliyatni ongli ravishda rejalashtirish ko'nikmasining shakllanishi qizlarda yigitlarga nisbatan yuqori darajada ekanligini ko'rsatadi. Mazkur holat bo'yicha, qizlar o'z faoliyatini rejalashtirishlari, faoliyatda tizimlilikni afzal bilishlarini anglatadi. Yigitlar esa ko'proq vaziyatga qarab qarorlarni qabul qilishdagi faolliklari bilan ajralib turishlari tadqiqot o'tkazish davomida dalillandi.

Tadqiqot metodikasida «Modellashtirish» bo'yicha ham ma'lum darajadagi farqlar kuzatildi ($U=1825,0$; $p\leq 0,05$). Bu shundan dalolat beradiki, yigitlarda hozirgi vaziyatda ham, uzoq muddatli kelajakda ham maqsadlarga erishish uchun muhim shart-sharoitlarni aniqlay olish, harakat dasturlarining faoliyat rejalariga muvofiqligi, olingan natijalarning qabul qilingan maqsadlarga muvofiqligi bilan namoyon bo'lishi dalillandi.

Olingan natijalarimizdagi o'ziga xos xususiyat shundaki, yigitlarda modellashtirish, qizlarda rejalashtirishning ustunlik qilishi aniqlandi. Chunki, odatda «rejalashtirish» omili bilan «modellashtirish» omili bir-biriga identivligi kuzatildi. Mazkur holatni biz yigitlardagi ijtimoiy jihatdan dadil, faoliyatni qisqa muddatlarda vaziyatga moslashgan holda rejalashtirish, loyihalash, aniq dalillar asosida natijani modellashtirish ko'nikmasi, qizlarda intuitiv tarzda faoliyat natijasini tahlil qilish ko'nikmasi bilan bog'liq ekanligini aniqladik.

Metodikadagi «O'zini o'zi boshqarish» omilining umumiy darajasi bo'yicha yigit va qizlarning natijalarida ahamiyatli farqlar qayd etildi ($U=1876,0$; $p\leq 0,05$). Bundan shuni anglash mumkinki, qizlarda yigitlarga nisbatan o'zini o'zi boshqarish, qaror qabul qilish va faoliyat yuritish xususiyati yuqori darajada ekanligi asoslandi. Mazkur holatlar oiladagi tarbiya muhiti bilan bevosita bog'liq bo'lib, milliy muhitda qizlarning tarbiyasidagi tashqi ijtimoiy ta'sir gender xususiyatlarga bog'liq. Bizda qizlarga tarbiya berishda «mumkin emas» iborasi mazmunidagi tarbiyaviy ta'sir usullarini me'yoridan ortiqcha qo'llanilishi natijasida o'z-o'zini nazorat qilish, o'z-o'zini boshqarish xususiyatini oshishi va o'zlarini kuzatishlariga mos ravishda tutishlariga sabab bo'lishi dalillandi.

Demak, talabalardagi antikorrupsion xulqning irodaviy komponentini ifodalanishida o'ziga xos differensial farqlar mavjud bo'lib, asosan «rejalashtirish», «modellashtirish», «o'z-o'zini boshqarish» sifatlarida ustuvorlik mavjudligi aniqlandi.

Tadqiqotimizda foydalanilgan MAS metodikasi ko'rsatgichlari bo'yicha gender natijalar tahlili shuni ko'rsatdiki, talabalar orasida ijtimoiy nufuz, prestijga intilish omillari o'rtasida sezilarli farqlar kuzatildi. Demak, ijtimoiy nufuz, prestijga intilish motivi yigitlarda qizlarga nisbatan yuqori bo'lishi aniqlashtirildi (5-jadval).

5-jadval

MAS metodikasi ko'rsatgichlari bo'yicha gender natijalar tahlili (n=610)

Omillar	Jins	N	O'rtacha qiymat	Standart og'ish
Ijtimoiy nufuz, prestijga intilish motivi	Yigitlar	320	9,3	4,7
	Qizlar	290	7,6	3,6
Raqobatga intilish motivi	Yigitlar	320	8,4	4,1
	Qizlar	290	7,1	3,2
Maqsadga erishishga intilish motivi	Yigitlar	320	10,3	5,2
	Qizlar	290	9,4	4,8

«Raqobatga intilish motivi» omili yigitlarda yuqori darajada shakllanganligini ko'rishimiz mumkin. Mazkur holatni talabalardagi o'ziga va ertangi kuniga bo'lgan ishonchi, o'z maqsadlariga erishishi uchun raqobatga tayyorlik darajalarini namoyon bo'lishi bilan izohlandi. Demak, yigitlar qizlarga nisbatan ko'proq darajada jamiyatda o'z «ijtimoiy nufuz, prestijga intilish motivi» ega bo'lishi uchun raqobatga intilar ekan. Bundan tashqari, yigitlarda «ijtimoiy nufuz va prestijga intilish motivi» ularni jamiyatdagi mavqeini mustahkamlashi bilan izohlandi.

MAS metodikasidan qo'lga kiritilgan empirik natijalarga ko'ra talabalar orasida «maqsadga erishishga intilish motivi» omilida ham gender farqlar aniqlandi. Ya'ni mazkur omil bo'yicha yigitlarda qizlarga nisbatan yuqori bo'lishi kuzatildi. Mazkur holat yigitlar maqsadga erishish uchun ko'proq mehnat talab etilishi va raqobatsiz mazkur maqsadga to'laqonli erishish mushkulligi bilan izohlanadi.

Demak MAS metodikasi natijalaridan ko'rinib turibdiki, «ijtimoiy nufuz va prestijga intilish motivi» va «maqsadga erishishga intilish motiv»lariga qizlarga nisbatan yigitlarda ko'proq ehtiyoj sezilarkan. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mazkur metodika omillari talabalarda korrupsion xulq-atvorga qarshi immunitetni shakllantirishga xizmat qiladi. Buning asosiy sababi shundaki, agar talabalar ta'lim jarayoni paytida ijtimoiy munosabatlarda, raqobatda hamda maqsad qo'yishda adekvat yondashilsa korrupsion holatlarga qo'l urishmaydi.

Talabalarda korrupsion holatlarga qarshi xulq-atvorni shakllantirishda «mas'uliyatlilik», «tashabbuskorlik», «jur'atlilik», «mustaqillik», «matonatlilik», «qat'iylik», «g'ayratlilik», «e'tiborlilik», «maqsadga intiluvchanlik» kabi irodaviy sifatlar hamda «ijtimoiy nufuz, prestijga intilish motivi», «raqobatga intilish motivi» kabi omillar muhim ekan.

Dissertasiyaning **«Talabalarda antikorrupsion xulq-atvorni samaradorligining tadqiq qilinishi»** deb nomlangan uchinchi bobida talabalarda antikorrupsion xulq-atvorini shakllantirishda ta'sir etadigan omillar, psixologik va tadqiqot obyektlaridan olingan empirik natijalarning qiyosiy tahlillari keltirilgan.

O'zini o'zi anglashi, o'zini shaxs sifatida tanishi, aqliy qobiliyatlari, xatti-harakatlari, o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini anglashdan iborat. O'z-o'zini anglash shaxs faoliyatining ajralmas jarayonida tarixan tarkib topib, jamiyatda, guruhda o'z mavqeini bilishi baholash darajasiga bog'liq. Tadqiqotni o'tkazishning metodologik asoslari, talabalik davrida o'zini o'zi boshqarish xususiyatlari va o'zini nazorat qilishga doir ilmiy-amaliy ma'lumotlar tahlili keltirilgan. Tahlillarga ko'ra, talabalik davrida o'zini o'zi boshqarish xususiyatlarini psixodiagnostik usullarining mazmuni, qo'llanilish tartibi, samaradorlik mexanizmlari to'g'risida batafsil ma'lumotlar keltirilgan.

Tadqiqot natijalariga ko'ra (6-jadval), «rejalashtirish» dasturlashtirish ($r=0,36$; $p\leq 0,01$), «egiluvchanlik» ($r=0,30$; $p\leq 0,01$), «mustaqillik» ($r=0,37$; $p\leq 0,01$), «o'zini o'zi boshqarish darajasi» ($r=0,59$; $p\leq 0,01$), «o'zini o'zi boshqarish qobiliyati» ($r=0,23$; $p\leq 0,01$) bilan korrelyatsion aloqadorlik mavjudligi qayd etildi. Bundan ko'rinadiki, talabalarining faoliyatni ongli ravishda rejalashtirish ko'nikmasining shakllanishi ularda o'z xatti-harakatlari dasturini tuzishi, turli

vaziyatlarga nisbatan moslashuvchanlik, mustaqil qaror qabul qilish, o'zini o'zi tartibga solishi kabi xususiyatlarning tarkib topishiga sabab bo'lishi dalillandi.

6-jadval.

**Talabalarida o'z xulq-atvorini boshqarish
komponentlari o'rtasidagi aloqadorlik (n=610)**

Xulq-atvorda o'z-o'zini boshqarish komponentlari	Rejalashtirish	Modellashtirish	Dasturlashtirish	Natijalarni baholash	Egiluvchanlik	Mustaqillik	O'zini o'zi boshqarish darajasi	O'zini o'zi boshqarish qobiliyati
Rejalashtirish	1	-0,03	0,36**	-0,001	0,30**	0,37**	0,59**	0,23**
Modellashtirish	-0,03	1	0,04	0,33**	0,23**	-0,14*	0,33**	0,19**
Dasturlashtirish	0,36**	0,04	1	0	0,44**	0,29**	0,58**	0,21**
Natijalarni baholash	-0,001	0,33**	0	1	0,20**	-0,05	0,30**	0,07
Egiluvchanlik	0,30**	0,23**	0,44**	0,20**	1	0,31**	0,61**	0,31**
Mustaqillik	0,37**	-0,34*	0,29**	-0,05	0,31**	1	0,47**	0,3399
O'zini o'zi boshqarish darajasi	0,59**	0,33**	0,58**	0,30**	0,61**	0,47**	1	0,39**
O'zini o'zi boshqarish qobiliyati	0,23**	0,29**	0,21**	0,07	0,31**	0,33**	0,39**	1

Metodikadagi «Modellashtirish» natijalarni baholash ($r=0,33$; $p\leq 0,01$), egiluvchanlik ($r=0,23$; $p\leq 0,01$), «o'zini o'zi boshqarish darajasi» ($r=0,33$; $r\leq 0,01$), «o'zini o'zi boshqarish qobiliyati» ($r=0,29$; $p\leq 0,01$) omillari bilan ijobiy, «mustaqillik» ($r=0,34$; $p\leq 0,05$) bilan salbiy korrelyatsion aloqadorlik mavjud. Natijalardan ma'lumki, subyektning hozirgi vaziyatda ham, uzoq muddatli kelajakda ham maqsadlarga erishish uchun muhim shart-sharoitlarni aniqlay olish qobiliyatining rivojlanishiga mavjud imkoniyatlarni to'g'ri baholash, o'zining xatti-harakatlarini boshqarish kabi xususiyatlar o'z ta'sirini o'tkazadi. Shu bilan bir qatorda, ushbu xulq-atvor ko'rinishining shakllanishiga mustaqil qaror qabul qilishdan ko'ra boshqalarning tavsiyalari, hayotiy tajribalaridan o'rnak olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotda foydalanilgan metodikaning keyingi omili «Dasturlashtirish» «rejalashtirish» ($r=0,36$; $p\leq 0,01$), «egiluvchanlik» ($r=0,44$; $p\leq 0,01$), «mustaqillik»

($r=0,29$; $p\leq 0,01$), «o‘zini o‘zi boshqarish darajasi» ($r=0,58$; $p\leq 0,01$), «o‘zini o‘zi boshqarish qobiliyati» ($r=0,21$; $p\leq 0,01$) omillari bilan korrelyatsion aloqadorlik mavjudligi aniqlandi. Natijalardan ma‘lumki, shaxsning o‘z xatti-harakatlari va xulq-atvor usullarini ko‘zlangan maqsadlarga erishish uchun mosligi, faoliyat dasturlarining istiqbolini tahlil qilish xususiyatlari ulardagi rejalarni to‘g‘ri tuzish, qiyin vaziyatlarga moslashish, erkin tanlovni amalga oshirish va o‘zini o‘zi boshqarish darajalari bilan belgilanishi aniqlandi.

Navbatdagi «Natijalarni baholash» «modellashtirish» ($r=0,33$; $p\leq 0,01$), «egiluvchanlik» ($r=0,20$; $p\leq 0,01$), «o‘zini o‘zi boshqarish darajasi» ($r=0,30$; $p\leq 0,01$) omillari bilan korrelyatsion aloqadorlik mavjudligi qayd etildi. Mazkur ko‘rsatkichlar shuni anglatadiki, sub‘ektning o‘z faoliyati va xatti-harakatlari natijalarini baholashning individual rivojlanishi hamda adekvat bo‘lishida shaxs kelgusi ishlarni rejalashtirishi, yangilik yarata olishi, turli vaziyatlarga moslashish kabi omillar muhim ahamiyat kasb etadi.

Keyingi omillar «egiluvchanlik» «rejalashtirish» ($r=0,30$; $p\leq 0,01$), «modellashtirish» ($r=0,23$; $p\leq 0,01$), «dasturlashtirish» ($r=0,44$; $p\leq 0,01$), «natijalarni baholash» ($r=0,20$; $p\leq 0,01$), «mustaqillik» ($r=0,31$; $p\leq 0,01$), «o‘zini o‘zi boshqarish darajasi» ($r=0,61$; $p\leq 0,01$), «o‘zini o‘zi boshqarish qobiliyati» ($r=0,31$; $p\leq 0,01$) omillari bilan korrelyatsion aloqadorlik mavjudligi aniqlandi. Bundan ko‘rinadiki, o‘zini o‘zi boshqarishda moslashuvchanlikning shakllanish darajasi, ya‘ni tashqi va ichki sharoitlar o‘zgarganda o‘z-o‘zini tartibga solish tizimini qayta qurish, tuzatishlar kiritish qobiliyatining ortishi, o‘z navbatida, shaxs kelgusida amalga oshiriladigan ishlar rejasini tuzish, aniq yo‘nalishlarni belgilash, natijalarni baholash, mustaqil faoliyatni yo‘lga qo‘ya olish, o‘zini o‘zi boshqarish darajalarining ham ortishiga sabab bo‘lishi dalillandi.

Tadqiqotdagi «Mustaqillik» omili «rejalashtirish» ($r=0,37$; $p\leq 0,01$), «dasturlashtirish» ($r=0,29$; $p\leq 0,01$), «egiluvchanlik» ($r=0,31$; $p\leq 0,01$), «o‘zini o‘zi boshqarish darajasi» ($r=0,47$; $p\leq 0,01$) omili bilan ijobiy, «modellashtirish» ($r=-0,14$; $p\leq 0,05$) omili bilan salbiy korrelyatsion aloqadorlik mavjudligi kuzatildi. Natijalardan olingan tahlillardan shunday holat ma‘lum bo‘ladiki, talabalarning o‘quv faoliyatini tashkil etishda mustaqillik, o‘zining ish-harakat va xulq-atvorini erkin ravishda rejalashtirish, faoliyatning oraliq va yakuniy natijalarini tahlil qilish hamda baholash qobiliyati undagi rejali faoliyat yuritish, moslashuvchanlik, o‘zini o‘zi to‘g‘ri yo‘naltira olish, aniq va tizimli ishlash bilan bevosita ijobiy bog‘liqlik ekanligi asoslandi.

«O‘zini o‘zi boshqarish darajasi» «rejalashtirish» ($r=0,59$; $p\leq 0,01$), «modellashtirish» ($r=0,33$; $p\leq 0,01$), «dasturlashtirish» ($r=0,58$; $p\leq 0,01$), «natijalarni baholash» ($r=0,30$; $r\leq 0,01$), «egiluvchanlik» ($r=0,61$; $p\leq 0,01$), «mustaqillik» ($r=0,47$; $p\leq 0,01$), «o‘zini o‘zi boshqarish qobiliyati» ($r=0,39$; $p\leq 0,01$) omillari bilan korrelyatsion aloqadorlik mavjudligi isbotlandi. Bundan shuni anglash mumkinki, talabalardagi o‘zini o‘zi tartibga solish, qaror qabul qilish va faoliyat yuritish xususiyati, ish va harakatni rejalashtirish, xatti-harakatlar dasturini tuzish, natijalarni baholashning subyektiv mezonlari shakllanishi, o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashish, mustaqil fikrlash, tashqi va ichki muhim shart-sharoitlar to‘g‘risidagi g‘oyalarning individual rivojlanishi kabi omillar

ta'sirida taraqqiy etib boradi.

Navbatdagi «o'zini o'zi boshqarish qobiliyati» «rejalashtirish» ($r=0,23$; $p\leq 0,01$), «modellashtirish» ($r=0,19$; $p\leq 0,01$), «dasturlashtirish» ($r=0,21$; $p\leq 0,01$), «egiluvchanlik» ($r=0,31$; $p\leq 0,01$), «mustaqillik» ($r=0,33$; $p\leq 0,01$), «o'zini o'zi boshqarish darajasi» ($r=0,39$; $p\leq 0,01$) omillari bilan korrelyatsion aloqadorlik kuzatildi. Yuqoridagi ko'rsatkichlarga tayangan holda, shuni ta'kidlash joizki, talabalarning o'zini o'zi tartibga solish qobiliyati yuqori darajada bo'lgan subyektlar rejali ish qilish ko'nikmasiga ega, o'z hatti-harakatlar modelini tuzishga moyil, o'zgaruvchan sharoitlarga moslashuvchan, mustaqil qaror qabul qilish va o'zini o'zi tartibga solishi aniqlandi.

7-jadval.

Talabalik davrida xulq-atvorda o'zini o'zi boshqarish va reflektivlik xususiyatlari o'rtasidagi aloqadorlik natijalari (n=610)

Refleksivlik yo'nalishlari	Rejalashtirish	Modellashtirish	Dasturlashtirish	Natijalarni baholash	Egiluvchanlik	Mustaqillik	O'zini o'zi boshqarish darajasi	O'zini o'zi boshqarish qobiliyati
Faoliyatning retrospektiv refleksiyasi	0,05	0,09	0,05	0,14*	0,04	-0,001	0,13*	0,17*
Ayni vaqtdagi faoliyat refleksiyasi	-0,09	0,22**	-0,20**	0,24**	-0,11	-0,18**	-0,06	-0,06
